

AYOLLARDA KO'KRAK SARATONI

Islomova Nazokat

Kokand University Andijon filiali

Annotatsiya: ko'krak bezi saratoni, uning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi omillar, ko'krak bezi saratonini oldini olish, Ushbu maqolada ayollar orasida eng keng tarqalgan yomon sifatli o'sma turlaridan biri bo'lgan ko'krak bezi saratoni tahlil qilinadi. Kasallikning rivojlanish sabablari, xavf omillari, klinik belgilari, tashxislash va davolash usullari, shuningdek, erta aniqlashning ahamiyati yoritilgan. Maqola tayyorlanishida PubMed, Scopus, Web of Science, Google Scholar kabi ilmiy bazalardan so'nggi 10 yil ichida chop etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilingan. Maqsad – mavjud ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish va ko'krak saratoni bo'yicha chuqur klinik-tadqiqotiy yondashuvni shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: Ko'krak bezi saratoni, ayollar salomatligi, onkologiya, yomon sifatli o'sma, erta tashxis, skrining, o'z-o'zini tekshirish, gormonal omillar, kasallik xavf omillari, profilaktika, metastaz, saratonni davolash, onkomarkyerlar, radiologik diagnostika, ginekologik onkologiya

Annotatsion: breast cancer, factors causing its occurrence, prevention of breast cancer, This article analyzes breast cancer, one of the most common malignant tumors among women. The causes of the development of the disease, risk factors, clinical symptoms, methods of diagnosis and treatment, as well as the importance of early detection are covered. In preparing the article, scientific articles published in the last 10 years from scientific databases such as PubMed, Scopus, Web of Science, Google Scholar were analyzed. The goal is to systematically analyze the available scientific data and form a deep clinical research approach to breast cancer.

Key words: Breast cancer, women's health, oncology, low-grade tumor, early diagnosis, screening, self-examination, hormonal factors, disease risk factors, prevention, metastasis, cancer treatment, tumor markers, radiological diagnostics

Аннотация: Рак молочной железы, факторы, способствующие его возникновению, профилактика рака молочной железы. В данной статье анализируется рак молочной железы – одна из самых распространенных злокачественных опухолей среди женщин. Рассматриваются причины развития заболевания, факторы риска, клинические симптомы, методы диагностики и лечения, а также важность раннего выявления. При подготовке статьи были проанализированы научные статьи, опубликованные за последние 10 лет из таких научных баз данных, как PubMed, Scopus, Web of Science, Google Scholar. Целью является системный анализ имеющихся научных данных и формирование глубокого клинического подхода к исследованию рака молочной железы.

Ключевое слово: Рак молочной железы, женское здоровье, онкология, низкоккачественная опухоль, ранняя диагностика, скрининг, самообследование, гормональные факторы, факторы риска заболеваний,

KIRISH

Ayollar salomatligi dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biri bo'lib, ularning orasida ko'krak bezi saratoni (molochnaya jeleza saratoni) eng ko'p uchraydigan o'smalardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, har yili millionlab ayollar ushbu kasallik bilan ro'yxatga olinadi va ko'p hollarda kech aniqlanishi tufayli kasallik og'ir oqibatlariga olib keladi. Ko'krak bezi saratoni — bu ko'krak bezining epiteliy hujayralaridan paydo bo'ladigan yomon sifatli o'sma bo'lib, u tezda yaqin to'qimalarga va uzoq a'zolarga (metastaz) tarqalishi mumkin. Mazkur kasallikning kelib chiqish sabablari ko'p omilli bo'lib, irsiyat, gormonal disbalans, ekologik omillar, turmush tarzidagi o'zgarishlar va reproduktiv salomatlik bilan bog'liq holatlar muhim rol o'ynaydi. Maqolada ushbu kasallikning rivojlanish mexanizmlari, xavf omillari, klinik belgilari, tashxislash va davolash usullari, shuningdek, erta aniqlash va profilaktika masalalari tahlil qilinadi. Ko'krak saratonini erta bosqichda aniqlash — ayollar hayotini saqlab qolishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqola yozilishida asosiy maqsad mavzu bo'yicha mavjud ilmiy manbalarni tizimli ravishda tahlil qilish va umum lashtirishdan iboratdir. Material sifatida xalqaro va milliy ilmiy bazalarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar ishonchli elektron resurslar tanlandi. Ma'lumotlar yig'ish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi. Ma'lumotlarni qidirish: kalit so'zlar yordamida ilmiy ma'lumotlar elektron bazalarda (PubMed, Scopus, Web of Science, Google Scholar va boshqa) qidirildi. Qidiruv natijalari mavzuga bevosita aloqador bo'lgan, so'nggi 10 yil ichida chop etilgan maqolalar bilan cheklab olindi. Ma'lumotlarni tahlil qilish: tanlangan manbalar batafsil o'qildi, ularning metodologiyasi, natijalari va xulosalari taqqoslandi.

Natijalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki ko'krak bezi saratoni (KBS) va tuxumdonlar orasida chuqur endokrin va genetik uzviylik mavjud. Xususan: BRCA1/2 mutatsiyasi bo'lgan bemorlarda KBC bilan birga tuxumdon saratoni (TS) rivojlanish xavfi 15n40% gacha yetadi. Bu esa ushbu ikki azodagi o'sma jarayonlar genetik asosda bog'liq ekanini tasdiqlaydi. KBS bilan og'rigan bemorlarning tuxumdon to'qimalarida stromal fibroz, follikulyar atreziya, epiteliy giperplaziya kabi gistomorfologik o'zgarishlar qayd etilgan. Bu holat o'sma rivojlanishida gormonal muvozanatsizlikning rolini ko'rsatadi [2]. Estrogen va progesteron retseptorlarining pasaygan ekspressiyasi, Ki-67 indeksining ortishi tuxumdonlar to'qimalarida proliferativ faollikning kuchayganligini fodalaydi. Bu esa KBS fonida tuxumdonlardagimalignizatsiya potentsialining oshishini anglatadi. Bazi tadqiqotlarda KBSga chalingan bemorlarning tuxumdonlarida metastatik hujayra infiltratsiyasi (Krukenberg! turi) kuzatilgani! qayd etilgan [4]. Bu morfologik o'zgarishlarni saratonning sistemali tarqalish xususiyatini ko'rsatadi. KBS davosida qo'llaniladigan kemoterapiya va gormonterapiya tuxumdonlarda ikkilamchi degenerativ o'zgarishlarga, ya'ni hujayra atrofiyasi va stromaning fibroziga olib kelishi aniqlangan. Umuman olganda, ada biyotlarda keltirilgan faktlar shuni ko'rsatdiki, KBS nafaqat ko'krak bezining lokal patologiyasi, balki organizmning umumiy gormonal va genetik holatiga bog'liq tizimli kasallikdir [5,6]. Estrogen gormoni ta'sirida nafaqat ko'krak bezi epiteliyasi, balki tuxumdon yuzasidagi epiteliy qavatda ham

proliferatsiya faollashadi. Bu jarayonlar uzoq muddatli estrogeniga ekspozitsiya bo'lganda gistomorfologik o'zgarishlar, jumladan o'sma oldi jarayonlarini yuzaga keltirishi mumkin. BRCA1/2 mutatsiyasi tashuvchilarida KBS aniqlangach, tuxumdonlarni oldini olish maqsadida olib tashlash (profilaktik ooforektomiya tavsiya qilinadi) Patogistologik tahlil natijasida ko'p hollarda morfologik o'zgarishlar karsinoma (STIC) va!epitelial displaziyalar aniqlangan [8,10]. Ko'krak bezi saratoni (KBS) metastazlari odatda suyak, o'pka, jigar va miya kabi a'zolariga tarqaladi. Biroq, tuxumdonlarga metastaz qilishi nisbatan kam uchraydigan, ammo klinik jihatdan ahamiyatli holat hisoblanadi! [11]. Tuxumdonlarga metastazlar odatda gematogen yoki limfogen yo'l bilan yuz beradi. Ko'krak bezi saratonining invaziv lobul yar turi tuxumdonlarga metastaz qilishga ko'proq moyil bo'ladi, bu tur peritoneal bo'shliq orqali ham tarqalishi mumkin.

Ko'pchilik hollarda metastatik tuxumdon zararlanishi simptomsiz kechadi. Ba'zida bemorlarda qorin og'rig'i qorinning shishishi, hayz ko'rishdagi o'zgarishlar yoki bepustlik aniqlanadi. Bunday metastazlar ko'pincha tasodifan, operatsiyalar yoki radiologik tekshiruvlar davomida aniqlanadi. Ultrasonografiya (USG), kompyuter tomografiyasi (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) tuxumdonlardagi o'zgarishlarni aniqlashda muhim [12]. Biopsiya va gistologik tekshiruv metastatik o'smalarni mahalliy (birlamchi) tuxumdon o'smalaridan ajratish uchun zarur. Immunogistokimyoviy markerlar (masalan, GATA3, mammaglobin, ER, PR) ko'krak bezi kelib chiqishini tasdiqlashga yordam beradi. Metastatik tuxumdon zararlanishlarini birlamchi tuxumdon! karsinomalaridan farqlash oson emas.

Morfologik jihatdan metastatik o'smalar ko'pincha ikki tomonlama, kichikroq va yuzaki joylashgan bo'ladi. Davolashda asosiy e'tibor sistemik terapiyaga (gormonoterapiya, kimyoterapiya) qaratiladi. Tuxumdonlar jarrohlik yo'li bilan olib tashlanishi faqat simptomatik bo'lsa yoki tashxisni aniqlashtirish kerak bo'lsa amalga oshiriladi. Metastatik tuxumdon zararlanishi prognozni og'irlashtiradi, chunki bu holat kasallikning keng tarqalganligini ko'rsatadi [13].

Xulosa: Ko'krak bezi saratoni, ayollar salomatligi, xavf omillari, erta tashxis, onkologiya. Ko'krak bezi saratoni — ayollar sog'lig'iga tahdid soluvchi, erta aniqlanmagan holatlarda hayot uchun xavfli kechadigan yomon sifatli o'sma hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, kasallikni erta bosqichda aniqlash bilan sog'ayish ehtimoli yuqori bo'ladi. Shu sababli, muntazam skrining, o'z-o'zini tekshirish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish kasallikni oldini olish va erta davolashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'krak bezi saratoni — ayollar sog'lig'iga tahdid soluvchi, erta aniqlanmagan holatlarda hayot uchun xavfli kechadigan yomon sifatli o'sma hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fayzullayev M.X., Raximov Sh.K. Onkologiya. - Toshkent: Tibbiyot, 2018. - 412 b.
2. Karimov A.A. Ginekologik onkologiya asoslari. - Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020. - 276 b.
3. World Health Organization (WHO). Breast cancer: Factsheet. - 2023.
URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/breast-cancer>

4. DeSantis C.E., Ma J., Goding Sauer A., et al. Breast cancer statistics, 2022. CA: A Cancer Journal for Clinicians. – 2022; 72(6): 524–541.
5. Rasulo L.M., Larina N.V. Рак молочной железы: современные подходы к лечению. – Москва: МИА, 2021.
6. Normatova Sh.A., Parpiyeva O.R. Ayollarda ko'krak bezi saratonini erta aniqlashda zamonaviy yondashuvlar. Tibbiyotda innovatsiyalar. – 2023; 2(4): 45–49.
7. National Cancer Institute (NCI). Breast Cancer Treatment (PDQ®)-Patient Version. URL: <https://www.cancer.gov/types/breast/patient/breast-treatment-pdq>
8. Jemal A., Torre L.A., Soerjomataram I. et al. Global cancer burden. – Cancer Epidemiol Biomarkers Prev. 2021; 30(1): 15–30.
9. Ghoncheh M., Pournamdar Z., Salehiniya H. Incidence and mortality of breast cancer and their relationship to development in Asia. – Asian Pac J Cancer Prev. 2016; 17(4): 1911–1917.
10. Apollo Hospitals. Ko'krak bezi saratoni haqida. (o'zbek tilida).